



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IJTIMIY RIVOJLANISHIDA FAOLIYAT TURLARINING O'RNI

Mamatova Gulhayo Olimjon qizi

Andijon viloyati, Jalaquduq tumani. ADU Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim) magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5758414>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20- Noyabr 2021

Ma'qullandi: 25- Noyabr 2021

Chop etildi: 30 - Noyabr 2021

KALIT SO'ZLAR

*ijtimoiylashuv, bilish
jarayonlari, faoliyat
turlari, o'yin, mehnat,
ta'lim, muloqot.*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy,jismoniy,psixologik jihatdan rivojlanishi,ularning shaxs sifatida shakllanib borishida psixologik jarayonlarining hamda faoliyat turlarining ta'siri, ahamiyatini o'rganish haqida.

O'zining mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'lini tanlab olgan O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasini ham tubdan isloh qilib bormoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni qabul qilinishi Ta'lim tizimini rivojlanishiga yo'l ochib berdi desak mubolag'a bo'lmaydi. So'ngi yillarda yurtboshimiz tomonidan uzluksiz ta'limning birinchi bo'g'ini maktabgacha ta'lim tizimiga ham alohida e'tibor qaratilib tubdan isloh qilishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli farmoni e'lon qilindi. Aynan shu kuni Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida PQ-3305-sonli qarori ham qabul qilindi. Bundan tashqari qabul qilingan farmonni ijrosini ta'minlash hamda

maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish, davlat va nodavlat maktabgacha tashkilotlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish sharoitlarini yaratish, davlat va xususiy sektor sherikligi shartlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yangi shakllarini joriy etishni samarali tashkil etishini ta'minlash maqsadida bir qancha qarorlar qabul qilindi. Bugungi kunda respublikamizda jami 19 316 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularning 6 258 tasi davlat va 13 058 tasi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti. Ushbu maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 1 760 808 nafar bola qamrab olingan, bu maktabgacha yoshdagi umumiy aholini 62.4%ni tashkil qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida asosan kichik, o'rta, katta hamda tayyorlov guruhlari



faoliyatlari yo'lga qo'yilgan. Har bir guruhga bolalar yosh xususiyatidan kelib chiqib qamrab olinadi.

- kichik guruh 3-4 yoshli bolalar
- o'rta guruh 4-5 yoshli bolalar
- katta guruh 5-6 yoshli bolalar
- tayyorlov guruh 6-7 yoshli bolalarni tashkil etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotini asosiy vazifasi bolalarni har tomonlama, milliy ruhda mukammal, yetuk qilib maktab ta'limiga tayyorlaashdan iborat.

Bolani shaxs sifatida shakllanib, ijtimoiylashib borishida atrof-muhit yani tengdoshlari bilan muloqot o'rnatishi, kattalarning unga bo'lgan munosabati, olib borilayotgan ta'lim-tarbiya jarayoni muhim o'rin tutadi. Bolalar asosan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kun davomida tarbiyachi nazoratida bo'ladilar. Bola hayotida maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi mashg'ulotlar, turli xildagi o'yin faoliyatlari kata ahamiyatga ega hisoblanadi. Faoliyat orqali inson shaxs sifatida ifodalanib, shaxs sifatida tarkib topadi. Insonlarda asosan:

- o'yin
- o'qish
- mehnat
- muloqot kabi faoliyat turlari asta-sekin rivojlanib uzoq muddat davom etadi. Bu faoliyat turlari maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy rivojlanishida, shaxs sifatida tarkib topishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bola bir yoshga to'lgandan boshlaboq unda faoliyatning end sodda shakllarini egallash uchun shart-sharoitlar yuzaga kela boshlaydi. Unday shart-sharoitlardan biri o'yin hisoblanadi, yani maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yin faoliyatidir. O'yin ularning hayotiy faoliyatlarini, faolliklarini amalga oshirish shaklidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar narsalar bilan

rolli, qoidali, harakatli, didaktik, mazmunli o'yinlarni o'ynaydilar. Har bir o'yin faoliyati orqali bolalar har tomonlama rivojlanib boradi, aqlan, jismonan ham psixologik jihattan. Bundan tashqari o'yinlar orqali bolalarni bilish jarayonlari ham rivojlanib boradi. O'yin faoliyati vaqtida bollar guruh bo'lib ishlashni, yani do'tona munosabatta bo'lishni o'rganishadi, diqqati, tafakkuri, xotirasi, idrok qilishi rivojlanadi. O'yin faoliyatining yetakchiligiga asosiy sabab bu bolalarning harakatchanligi hisoblanadi. Ularda hayotiy tajribani kamligi har bir narsani o'yin deb qabul qilishidadir.

O'yin faoliyati pirovardida ta'lim faoliyati yuzaga keladi. Bu faoliyatning maqsadi ma'lum bir axborotlarni, bilimlarni harakat va amallarni o'zlashtirishdan iboratdir. Bolalarda asosan maktab yoshida o'qish faoliyati asta-sekinlik bilan rivojlanib boradi. Ta'lim faoliyati kattalar tomonidan tashkil qilinib boshqariladi va tizimli ravishda amalga oshirilib nazorat qilib boriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachi nazoratida turli xildagi mashg'ulotlar asosida ta'lim faoliyati olib boriladi. Maktabgacha yosh guruhlarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib hafta davomida rejali tarzda mashg'ulotlar amalga oshiriladi. Bu mashg'ulotlar har bir bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Mashg'ulotlar maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy ta'lim faoliyatidir. Bolalarda ta'lim faoliyati bilan birgalikda tarbiya jarayoni ham uzviylikda olib boriladi. Mehnat faoliyati-ma'lum ijtimoiy-foydali, moddiy yoki madaniy mahsulot ishlab chiqishiga qaratilgan faoliyatdan iboratdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar mehnati asosan kichik maydonlarda amalga oshiriladi. Bu maydonda ular o'simliklarni parvarish qilishni, tabiatga ehtiyotkorona munosabaatta bo'lishni o'rganishadi. Mehnat faoliyatiga o'rgatib boriladi. Mehnat faoliyati orqali ham



bolalar ijtimoiylashib boradi o'zi uchun kerakli narsalar ham mehnat orqali kelishini tushinib boradilar. Har bir inson o'ynaydi, ta'lim oladi, mehnat qiladi va bularning barchasi muloqot orqali amalga oshiriladi. Muloqot ham faoliyat turiga kiradi. Muloqot insonlarning faoliyat ehtiyojlari asosida tug'iladigon ko'p qirrali jarayondir. Muloqot faoliyati orqali bolalar kattalar bilan munosabat o'rnatadilar, do'stlik o'rnatadilar, hamkolikda o'yinlarni tashkil

etadilar. Xulosa qilib aytadigon bo'lsak faoliyat turlari orqali bolalarda ijtimoiylashuv ko'nikmalari paydo bo'ladi. Ularda faollik shakllanadi, faol yashashga, faol o'qishga harakat qilishadi, dunyoqarashi kengayib boradi. Demak biz yoshlarni ma'suliyatni his qilishiga, davlatimiz rivojiga o'z hissalarini qo'shishida faol bolishiga undashimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F.Qodirova,SH.Toshpo'latova,N.Qayumova,M.A'zamova.Maktabgacha pedagogika."Tafakkur"Nashriyoti.Toshkent-2019.
2. Bolalar psixologiyasi va diagnostikasi.
3. Umumiy psixologiya.